SANOATLASHTIRISH SHAROITIDA FARG‘ONA VODIYSI ISHCHILAR SINFI: MUAMMOLAR VA NATIJALAR

Olimjanova Zuxraxon Rustamjon qizi,
Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: zuxra.olimjanova@mail.ru

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19814810

Annotatsiya. *Mazkur maqolada 1920–1930-yillarda Farg‘ona vodiysida sanoatlashtirish jarayonlari ta’sirida ishchilar sinfining shakllanishi, uning son va sifat ko‘rsatkichlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda sanoat korxonalarida ishchi kuchining tarkibi, malaka darajasi, milliy xususiyatlari hamda kadrlar tayyorlash tizimining holati yoritib berilgan. Shuningdek, sovet davlati olib borgan sanoat va kadrlar siyosatining ijtimoiy oqibatlari ochib berilib, uning Farg‘ona vodiysi ijtimoiy tuzilmasiga ko‘rsatgan ta’siri baholangan.*

Kalit so‘zlar: *Farg‘ona vodiysi, sanoatlashtirish, ishchilar sinfi, sanoat korxonalari, kadrlar tayyorlash, mahalliy millat vakillari, kasaba uyushmalari, sovet davri, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar.*

Аннотация. *В данной статье на основе исторических источников анализируется формирование рабочего класса под влиянием процессов индустриализации в Ферганской долине в 1920-1930-е годы, а также его количественные и качественные показатели. В исследовании выделен состав рабочей силы на промышленных предприятиях, уровень квалификации, национальные особенности и состояние системы подготовки кадров. Также выявлены социальные последствия промышленной и кадровой политики, проводимой Советским государством, и оценено ее влияние на социальную структуру Ферганской долины.*

Ключевые слова: *Ферганская долина, индустриализация, рабочий класс, промышленные предприятия, подготовка кадров, представители местной национальности, профсоюзы, советский период, социально-экономические процессы.*

Abstract. *This article, based on historical sources, analyzes the formation of the working class under the influence of industrialization processes in the Fergana Valley in the 1920s and 1930s, as well as its quantitative and qualitative indicators. The study highlights the composition of the workforce in industrial enterprises, the level of qualifications, national characteristics and the state of the personnel training system. The social consequences of the industrial and personnel policy pursued by the Soviet state are also revealed, and its impact on the social structure of the Ferghana Valley is assessed.*

Keywords: *Ferghana Valley, industrialization, working class, industrial enterprises, personnel training, representatives of local nationality, trade unions, Soviet period, socio-economic processes.*

Kirish. Ishchilar sinfining shakllanishi va rivojlanishi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sanoatlashtirish jarayonlari kechgan davrlarda ishchilar sinfi nafaqat ishlab chiqarish kuchi, balki ijtimoiy munosabatlar va madaniy hayotdagi o‘zgarishlarning faol ishtirokchisiga aylangan. O‘zbekiston, jumladan Farg‘ona vodiysida XX asrning 20–30-yillarida amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosati ishchilar sinfining son

jihatdan o‘sishi bilan bir qatorda, uning sifat tarkibida ham muhim o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar asosan sovet davri tarixshunosligi hamda mustaqillik yillarida yaratilgan ilmiy asarlarga tayanadi. Jumladan, O‘zbekiston sanoatlashuvi va ishchilar sinfining shakllanishi masalalari umumiy tarixiy tadqiqotlarda yoritilgan bo‘lsa-da, Farg‘ona vodiysi misolida hududiy xususiyatlar yetarlicha chuqur tahlil etilmagan. Arxiv manbalari, xususan viloyat davlat arxivlari hujjatlari ishchilar soni, milliy tarkibi va malaka darajasi haqida muhim empirik ma’lumotlar beradi. Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda mahalliy kadrlar tayyorlash va ijtimoiy oqibatlarning kompleks tahlili yetarli darajada yoritilmaganligi ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiylik, tizimli yondashuv va qiyosiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Arxiv hujjatlari, statistik ma’lumotlar va ilmiy adabiyotlar asosida ishchilar sinfining shakllanish jarayonlari kompleks tarzda o‘rganildi. Shuningdek, hududiy xususiyatlarni aniqlash maqsadida tarixiy manbalar o‘zaro solishtirma tahlil qilindi.

Tahlillar va natijalar. O‘zbekiston SSRda sanoatning rivojlanishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, u o‘ta texnik-iqtisodiy qoloqlik sharoitida amalga oshirildi. Respublikada qisqa muddat ichida yirik sanoatning poydevorini yaratish, uni yoqilg‘i-energetika resurslari bilan ta’minlash, transport infratuzilmasini rivojlantirish, shuningdek, ishchilar sinfi va mahalliy millatlardan bo‘lgan muhandis-texnik kadrlarni shakllantirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qoldi. Ayniqsa, bu jarayonlar Farg‘ona vodiysi kabi agrar mintaqalarda murakkab va ziddiyatli kechdi.

Xalq xo‘jaligini tiklash davrida Farg‘ona vodiysidagi sanoat korxonalari asosan kichik quvvatga ega bo‘lib, ularda band bo‘lgan ishchilar soni ham nisbatan kam edi. Masalan, 1922-yilda Andijon shahridagi to‘qimachilik fabrikasida atigi 170 nafar ishchi va xizmatchi faoliyat ko‘rsatgan. Tiklanish davrining ikkinchi yarmida elektr stansiyasi va bosmaxonada 27 nafardan, g‘isht zavodida esa 57 nafar ishchi mehnat qilgan. Shu bilan birga, ayrim yirik korxonalarda ishchilar soni ko‘proq bo‘lgan: Andijondagi 6-sonli “Qizil O‘zbekiston” yog‘-moy zavodida 500 nafar ishchi-xizmatchi ishlagan. Paxta tozalash zavodlarida doimiy ishchilar soni o‘rtacha 100–120 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, mavsumiy xarakterga ega bo‘lgan paxta yig‘im-terimi davrida bu ko‘rsatkich 300–400 kishigacha yetgan.

1920-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab sanoatlashtirish jarayonlarining jadallashuvi ishchilar sinfi sonining sezilarli darajada oshishiga olib keldi. Jumladan, 1927-yilga kelib Andijon okrugida, shu jumladan Andijon shahridagi 23 ta davlat sanoat korxonalarida faoliyat yuritayotgan ishchilarning umumiy soni 6725 nafarga

yetdi [1]. Bu esa qisqa vaqt ichida ishchilar qatlamining shakllanishi va kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Qo‘qon shahridagi paxta zavodi ishchilari haqidagi ma’lumot boshqa bir hujjatda keltirilgan bo‘lib, unga ko‘ra, Qo‘qondagi №41 sonli paxta tozalash zavodida jami 163 nafar ishchi-xizmatchilar bo‘lib, ulardan 86 nafari malakali ishchilar, 170 nafari malakasiz ishchilar, 10 nafari xizmatchilar bo‘lgan. Ishchilarning 72 nafari o‘zbeklar (2 nafari ayollar), 90 nafari tojiklar, 1 nafari yaxudiy bo‘lgan [2]. Namangan zavodlar boshqarmasi tasarrufidagi paxta tozalash zavodlarida jami 569 nafar ishchi-xizmatchilar bo‘lib, ulardan 48 nafari malakali mutaxassislar, 422 nafari malakasiz ishchilar, 99 nafari xizmatchilar bo‘lgan. Ishchi-xizmatchilarning 470 nafari o‘zbeklar (ulardan 11 nafari ayollar), 90 nafari tojiklar bo‘lgan [3]. Andijon shahridagi №6 “Qizil O‘zbekiston” nomli yog‘-moy zavodida 1926-yilda 584 nafar ishchi-xizmatchilar bo‘lib, ulardan 103 nafari malakali ishchilar, 415 nafari malakasiz ishchilar, 66 nafari xizmatchilar bo‘lgan. Ishchi-xizmatchilarning 184 nafari o‘zbeklar (6 nafari ayollar), 50 nafari tojiklar bo‘lgan [4]. Shu bilan birga, ishchilar sinfining sifat ko‘rsatkichlari masalasi dolzarb bo‘lib qoldi. Malakali mutaxassislar, muhandis-texnik kadrlar yetishmasligi sababli ko‘plab korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligi past bo‘ldi. Sovet davlatining kadrlar siyosati asosan markazdan yuborilgan ishchilar va mutaxassislarga tayanib, mahalliy millat vakillarini tayyorlash masalasiga yetarli e’tibor qaratmadi. Natijada, ishchilar sinfining milliy tarkibi notekis shakllandi.

Bu davrda Farg‘ona vodiysidagi sanoat korxonalarida mahalliy millatga mansub ishchilarning ko‘pchiligi past malakali edi. Davlat organlari mahalliy millatlardan ishchi kadrlar tayyorlash bo‘yicha muayyan ishlarni olib borgan. Bu masalaga e’tibor bermayotgan ayrim korxona rahbarlari tanqid qilingan. Masalan, 1928-yilda Andijon yog‘ zavodida yangi ishga qabul qilingan 20 kishidan atigi 9 nafari mahalliy millat vakillari edi. Paxta tozalash zavodida esa 26 nafar yangi ishchidan bor-yo‘g‘i 5 nafari o‘zbeklar edi [5]. Respublikaning boshqa shaharlaridagi kabi, Andijonda ham paxta tozalash sanoatida ishchilari soni eng tez sur’atlar bilan o‘sgan. 1922-yil 1-yanvardan 1925-yil 1-yanvargacha ularning soni qariyb 6 barobar ko‘paydi [6]. Biroq, ishchilar sonining umumiy o‘sishiga qaramay, mahalliy millatga mansub ishchilarning foizi juda past edi. Masalan, Andijon okrugida 1925-yilda sanoatning asosiy tarmoqlarida ular atigi 31 foizni tashkil etgan, garchi ayrim korxonalarda, jumladan Andijon yog‘-sovun zavodida, ularning soni ko‘proq – 60 foizgacha bo‘lgan. Faqat xalq xo‘jaligini tiklash davrining oxiriga kelib, mahalliy hokimiyat va jamoat tashkilotlari, korxona rahbarlari tomonidan milliy kadrlar tayyorlash bo‘yicha olib borilgan ishlar tufayli ularning soni jami ishchilarning yarmiga yetdi [7]. 1926-yildan boshlab Farg‘ona

vodiysi O‘zbekiston qismining shahar aholisi tarkibi ancha o‘zgardi. Shahar aholisining soni 341 ming kishi bo‘lsa, ulardan o‘zbeklar 236 ming (69,1 foiz), tojiklar 39 ming (11,3 foiz), ruslar 38 ming (11,1 foiz), yahudiylar 9 ming (2,5 foiz), tatarlar 4 ming (1,2 foiz), armanlar 4 ming (1,2 foiz), ukrainlar 3 ming (0,9 foiz), uyg‘urlar 2 ming (0,6 foiz), nemislar 526 kishini, qirg‘izlar 252 kishini tashkil qilgan [8].

Sanoatlashtirish jarayoni ishchilar malakasini oshirishni ham talab etdi. Shu maqsadda 1929-yilda ishlab chiqarishdan ajralmagan holda mutaxassislar tayyorlash uchun ishchilar universiteti tashkil etildi. Unda ishchilar, batraklar, kambag‘al dehqonlar va hunarmandlar ta’lim oldi. 1930-yildan boshlab qisqa muddatli sanoat-iqtisodiyot kurslari ochilib, keyinchalik ular negizida sanoat-iqtisodiyot kombinati tashkil etildi. Bu o‘quv muassasalari mahalliy millat vakillaridan malakali ishchi va texnik kadrlar tayyorlashda muhim rol o‘ynadi. Birinchi o‘quv yilida kunduzgi bo‘limda 80 nafar, kechki bo‘limda esa 40 nafar talaba ta’lim oldi. Ular orasida 6 nafar ishchi, 46 nafar batrak, 30 nafar kambag‘al dehqon, 14 nafar hunarmand va boshqalar bor edi [9]. 1920-yillarning oxirlariga kelib O‘zbekiston sanoatida mutaxassis kadrlar yetishmovchiligi tobora keskin tus ola boshladi. Yangi sanoat korxonalarini barpo etish, ularni ishga tushirish hamda samarali faoliyatini ta’minlash uchun ishlab chiqarish tajribasiga ega bo‘lgan malakali mutaxassislar zarur edi. Biroq sovet hokimiyatining mahalliy millat vakillaridan kadrlar tayyorlash masalasiga yetarli e’tibor qaratmagani milliy mutaxassislar shakllanishiga jiddiy to‘sqinlik qildi. Mahalliy aholi, asosan, qishloq xo‘jaligi sohasida mehnat qilishga yo‘naltirilgan edi. Mazkur sharoitda respublikadagi sanoat korxonalari zarur kadrlarni tayyorlash maqsadida zavod va fabrikalar qoshida hunar maktablari (FZU) tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga kirishdilar.

1926-1928-yillarda Farg‘ona okrugida 13 ta kasb-xunar maktablari bo‘lib, ulardan 10 tasi Qo‘qon shahrida, 3 tasi Farg‘ona shahrida edi. Qo‘qon shahrida Mexanika texnikumi bo‘lib, u to‘rt yillik kursda davom etgan. 1927–1928o‘quv yilida texnikumda 188 ta o‘quvchi o‘qigan, o‘quvchilarning ko‘pchiligi o‘zbeklar edi[10]. Bundan tashqari, Qo‘qon shahrida kasbga tayyorlovchi “Uzbekxlopkom” trestiga qarashli FZU maktabi (rus tilida ta’lim berilgan, 76 ta o‘quvchisi bo‘lgan); O‘rta Osiyo temir yo‘l uyushmasining FZU maktabi bo‘lib. Unda 235 ta o‘quvchi o‘qigan, o‘quvchilar o‘zbeklar va yevropalik millat vakillari bo‘lgan. Ayni paytda, Qo‘qon shahrida sanoat-iqtisodiyot kurslari, mashina-tikuv kurslari ham tashkil etilgan bo‘lib, ularda asosan okrugdagi sanoat korxonalari uchun ishchilar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan [11].

O‘zbekiston sanoatining barcha sohalarida mehnat unumdorligining oshishi ishchi va xizmatchilarning ish haqi o‘sishi bilan bir xil kechdi. O‘zbekistonning butun xalq xo‘jaligi bo‘yicha yillik ish haqi fondi 1928-yildagi 159 million rubldan 1932-yilda 712,3 million rublgacha, ya’ni deyarli 4,5 barobar ko‘paydi [12].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, XX asrning 1920–1930-yillarida O‘zbekistonda, jumladan Farg‘ona vodiysida sanoatlashtirish jarayoni ishchilar sinfining shakllanishi va rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq holda kechdi. Dastlab sanoatning texnik-iqtisodiy jihatdan qoloqligi, malakali mutaxassislar va muhandis-texnik kadrlarning yetishmasligi, transport va energetika infratuzilmasining rivojlanmaganligi bu jarayonni murakkablashtirdi [13]. Sanoat korxonalarida ishchilar soni asosan qishloq aholisining, hunarmandlar va batraklarning hisobiga ortib bordi, biroq mahalliy millat vakillarining katta qismi past malakali mehnat bilan band bo‘ldi [14].

Sovet davlatining kadrlar siyosati mahalliy milliy kadrlarni yetarli darajada tayyorlashga yo‘naltirilmagani sababli sanoatda kelgindi ishchi kuchi ustun mavqeni egalladi [15]. Shunga qaramay, sanoatlashtirish ehtiyojlari ta’sirida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda mutaxassislar tayyorlash, qisqa muddatli kurslar, ishchilar universitetlari va zavodlar qoshidagi hunar maktablari (FZU) faoliyati yo‘lga qo‘yildi [16]. Bu chora-tadbirlar natijasida asta-sekin mahalliy millat vakillaridan iborat ishchilar sinfi va texnik ziyolilar qatlamining shakllanishi uchun zamin yaratildi. Umuman olganda, sanoatlashtirish jarayoni ijtimoiy jihatdan ziddiyatli kechgan bo‘lsa-da, O‘zbekistonda yirik sanoat ishlab chiqarishining vujudga kelishi, ishchilar sinfining miqdoriy va sifat jihatdan o‘sishi hamda mahalliy kadrlar tayyorlash tizimining shakllanishida muhim tarixiy bosqich bo‘lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). Ikkita kitob. Birinchi kitob. O‘zbekiston 1917-1939 yillarda. Mas'ul muharrirlar: R. Abdullayev, M. Rahimov, Q. Rajabov. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – B. 313.
2. Andijon VDA, 145-fond, 1-ro‘yxat, 295-ish, 113-varaq.
3. Farg‘ona VDA, 324-fond, 1-ro‘yxat, 34-ish, 24-varaq.
4. Farg‘ona VDA, 324-fond, 1-ro‘yxat, 34-ish, 26-varaq.
5. Farg‘ona VDA, 324-fond, 1-ro‘yxat, 34-ish, 28-varaq.
6. Farg‘ona VDA, 324-fond, 1-ro‘yxat, 38-ish, 39-varaq.
7. O‘zR PAA Andijon viloyat bo‘limi, 93-fond, 1-ro‘yxat, 38-ish, 1-2-varaqlar.
8. “Комсомолец Востока”, 1929 г. 8 января.
9. История Узбекской ССР. В 4 т. Том 3. Победа Великой Октябрьской социалистической революции и построение социализма в Узбекистане (1917-1937 гг.). Отв. ред. Р.Х. Аминова и др. – Ташкент: Фан, 1967. – С. 347.
10. O‘z MA, R-25-fond, 1-ro‘yxat, 789-ish, 240-varaq.

11. Всесоюзная перепись населения 1926 года. Т. XV. Узбекская ССР. Отдел I. Народность, родной язык, возраст, грамотность. – Москва: ЦСУ, 1928. – С. 144-145, 148-149.
12. Andijon VDA, 145-fond, 1-ro‘yxat, 1177-ish, 31-varaq.
13. Farg‘ona VDA, 324-fond, 1-ro‘yxat, 280-ish, 122-varaq.
14. Farg‘ona VDA, 324-fond, 1-ro‘yxat, 280-ish, 123-varaq.
15. O‘z MA, R-386-fond, 1-ro‘yxat, 573-ish, 29-varaq.
16. O‘z MA, R-386-fond, 1-ro‘yxat, 573-ish, 31-varaq.